

YAKKABOG' TUMANIDAGI DAVLAT O'RMON KADASTR KARTALARINI ISHLAB TUZISH

ERGASHEV JASUR JAHONGIR o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti, 2-bosqich magistranti +99895-178-52-02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20292155>

Abstract: Ushbu maqolada GAT (Geografik axborot tizimlari) dasturlari asosida davlat o'rmon kadastr kartalarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy GIS texnologiyalari, masofadan zondlash ma'lumotlari hamda raqamli kartografik usullardan foydalanish orqali o'rmon fondi hududlarini xaritalash, ularning chegaralarini aniqlash va ma'lumotlar bazasini shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Keywords: GAT, GIS, davlat o'rmon kadastri, raqamli karta, ArcGIS, masofadan zondlash, o'rmon fondi, kartografiya, geoma'lumotlar bazasi, monitoring.

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты разработки карт государственного лесного кадастра на основе ГИС-программ. В исследовании изучены вопросы картографирования территорий лесного фонда, определения их границ и формирования базы данных с использованием современных ГИС-технологий, данных дистанционного зондирования и цифровых картографических методов.

Ключевые слова: ГИС, государственный лесной кадастр, цифровая карта, ArcGIS, дистанционное зондирование, лесной фонд, картография, геобаза данных, мониторинг.

Annotation: This article discusses the theoretical and practical aspects of developing state forest cadastre maps based on GIS software. The study examines the mapping of forest fund territories, determination of their boundaries, and creation of geospatial databases using modern GIS technologies, remote sensing data, and digital cartographic methods.

Keywords: GIS, state forest cadastre, digital map, ArcGIS, remote sensing, forest fund, cartography, geodatabase, monitoring.

So'nggi yillarda geoaxborot tizimlari (GAT), GPS va masofadan zondlash texnologiyalarining rivojlanishi o'rmon kadastri tizimini takomillashtirish imkonini yaratdi. Ushbu texnologiyalar yordamida o'rmon fondi yerlarining aniq chegaralarini belgilash, monitoring olib borish va geoma'lumotlarni markazlashtirilgan holda boshqarish mumkin bo'ldi. O'rmon kadastri tizimining samaradorligini baholash hamda Yakkabog' tumani o'rmon xo'jaligi misolida amaliy natijalarni tahlil qilishdan iborat.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligining turli sohalarida geoaxborotlar tizimini yaratishda kosmik va aerosuratlardan keng ko'lamda foydalanilgan holda aniqlik darajasi yuqori bo'lgan elektron raqamli kartalarni yaratish texnologiyasi yo'lga qo'yilib, mavjud 1:200 dan 1:25000 miqyosidagi elektron raqamli kartalar yaratilmoqda. Shu bilan bir qatorda turli formatlarda yaratilgan raqamli kartalar ArcGIS dasturi formatlariga o'girilmoqda[4].

Davlat o'rmon kadastri maqsadlari hamda boshqa maqsadlar uchun ham tuziladigan raqamli kartalarni ArcGIS dasturida yaratish asosiy o'rinni egallaydi.

Davlat o'rmon kadastri tizimida ma'lumotlarni avtomatlashtirishining afzalligi quyidagilardan iborat:

- o‘rmon xo‘jaliklari yerlarini royhatga olish maqsadlari uchun yuqori aniqlikdagi karta va planlarni ishlab chiqish;

- o‘rmon xo‘jaligida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarni turli miqyosdagi raqamli kartalar bilan ta‘minlash tezkor ta‘minlash;

- karta yaratish jarayonining boshqa dasturlarga nisbatan tezkorligi;

- ma‘lumotlarni solishtirish imkoniyatini mavjudligi;

- markazlashgan geoaxborotlar bazalarini yaratish;

- masofadan turib raqamli kartalarni tahrirlash (internet tarmogi);

- GPS va elektron taxeometrlarga kartalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri yetkazish imkoniyati;

- geoaxborotlar bo‘yicha interaktiv xizmatlar ko‘rsatish;

- iqtisodiyot jihatdan afzalligi va vaqtning tejamkorligi.

Respublikamizda tumanlarning elektron raqamli kartalari ArcGIS, OAZIS va PANORAMA dasturlarda mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiat Resurslari vazirligi huzuridagi o‘rmon xo‘jaligi agentligining ma‘lumotlariga ko‘ra 2026-yil 1-yanvar holati bo‘yicha O‘rmon fondi umumiy yer maydoni 8661.2 ming gektar yoki Respublika umumiy yer maydonining 20% ni tashkil qiladi[2].

Davlat o‘rmon kadastr obyektlariga taalluqli yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yhatidan o‘tkazish vakolatli organlar tomonidan, ko‘chmas mulkka huquqlarni ro‘yhatdan o‘tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.



1-rasm. Yakkabog‘ tumanidagi o‘rmonlar holatini o‘rganish.

Bunda o‘rmon obyektlariga taalluqli yer uchastkalari to‘g‘risidagi yer-kadastr axborotlarida yerlarning maqsadli foydalanilishi bo‘yicha tuzilmasi, yer uchastkalariga huquqlarning davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligi (shu jumladan yerlardan foydalanishda servitutlarda belgilangan mavjud cheklashlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar), yerlarning miqdori va sifati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘lishi kerak. Binolar va inshootlar kadastridan o‘rmon kadastriga beriladigan obyektlarga taalluqli binolar va inshootlar to‘g‘risidagi kadastr axborotlarida ulardan maqsadli foydalanilishi, huquqlarning davlat ro‘yhatidan o‘tkazilganligi, asosiy miqdor va sifat tavsiflari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘lishi kerak. Davlat o‘rmon kadastrini yuritish ishlarini moliyalashtirish davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladi va o‘rmon kadastr bo‘limi hamda Davlat O‘rmon qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari (o‘rmon xo‘jaliklari) tomonidan amalga oshiriladi.

Shu jumladan o‘rmon bilan qoplangan maydonlar 2391,4 gektar, shundan sun‘iy o‘rmonlar 207,1 gektar, yosh o‘rmonzorlar 152,9 gektar, siyrak o‘rmonlar 247,8 gektar, daraxtsiz ochiq

maydonlar esa 285,3 gektarni tashkil etadi. O‘rmonlarning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini hisobga olgan holda O‘zbekistondagi barcha o‘rmonlar 1-guruh o‘rmonlariga kiritilgan.

O‘rmon fondida alohida qimmatga ega bo‘lgan o‘rmon mavzolari 86,7 gektar, davlat qo‘riqxonalar o‘rmonlari 226,8 gektar, davlat milliy tabiat bog‘lari o‘rmonlari 24,1 gektar, ilmiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rmonlar 12,4 gektar, eroziya himoya o‘rmonlari 1135,1 gektarni tashkil etadi. O‘rmon fondi yerlari tog‘ zonasida 1200,9 gektar, qumli cho‘llar zonasida 7190,8 gektar, daryo bo‘yidagi to‘qayzorlarda 88,8 gektar, vodiylarda 52,2 ming gektarni tashkil etadi.

Masofadan zondlash texnologiyalari asosida o‘rmon xo‘jaligi yerlarining raqamli kartalarini tuzish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari va aerokosmik ma‘lumotlar yordamida o‘rmon fondi yerlarining aniq chegaralarini belgilash, ularning tarkibi va holatini tezkor aniqlash mumkinligi asoslab berildi. Raqamli kartalar o‘rmon resurslarini monitoring qilish, ularning o‘zgarish dinamikasini kuzatish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Takomillashtirilgan o‘rmon kadastr tizimining samaradorligi baholanib, uning an‘anaviy tizimga nisbatan ustunliklari aniqlandi. Xususan, ma‘lumotlarning aniqligi va yangilanish tezligi oshishi, kadastr ishlarini yuritishda vaqt va xarajatlarning kamayishi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining optimallasuvi asosiy natijalar sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, geoaxborot tizimlarini joriy etish orqali o‘rmon resurslaridan foydalanishda shaffoflik va nazorat darajasi sezilarli darajada ortishi ta‘kidlandi.

GAT asosida davlat o‘rmon kadastr kartalarini ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy asoslari yoritildi. Raqamli kartografik mahsulotlar orqali o‘rmon fondi yerlarining fazoviy tuzilmasi, ularning funksional xususiyatlari va holati aniq aks ettirilishi mumkinligi ko‘rsatildi. Bunday kartalar o‘rmon xo‘jaligini rejalashtirish, ekologik monitoringni tashkil etish va o‘rmonlarni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘rmon kadastrini yuritish tizimini takomillashtirish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy GAT texnologiyalari, masofadan zondlash usullari hamda elektron ma‘lumotlar bazalarini joriy etish orqali o‘rmon fondi yerlarini samarali boshqarish imkoniyati kengayadi.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geodeziya va kartografiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, 02.07.2020 yil // lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagi “Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4424-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasining «O‘rmon to‘g‘risida» gi qonuni. T.: O‘zbekiston, 1999.
4. Abdurazzoqov A.T, G‘ofirov A.J, Sulaymonova M.X. O‘rmon tuzish asoslari va ixota daraxtlari polosalarini loyihalash. O‘quv qo‘llanma. – T.:TIMI, 2010.
5. Safarov E.Yu., Musayev I.M., Abduraximov X.A. Geografik axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent., TIMI, 2009